XIII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

Ish haqi. 2023- yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko‘rsatmoqda:

Shahar va tumanlar kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2023- yil yanvar-mart oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)

Shahar va tumanlar	*O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m*		*O‘sish sur’ati, %*
	2022- yil	*2023- yil*	
Xorazm viloyati - jami:	**2 846,1**	**3 427,0**	**120,4**
shu jumladan:			
Urganch.sh.	3 758,1	4 506,2	119,9
Xiva.sh.	2 343,2	2 809,4	119,9
Bog‘ot	2 352,3	2 837,3	120,6
Gurlan	2 200,5	2 582,6	117,4
Qo‘shko‘pir	2 261,9	2 764,3	122,2
Urganch	2 470,4	3 079,9	124,7
Hazorasp	2 160,5	2 650,5	122,7
Tuproqqal’a	3 896,3	4 508,4	115,7
Xonqa	2 544,6	2 890,0	113,6
Xiva	2 395,4	2 776,1	115,9
Shovot	2 281,3	2 804,0	122,9
Yangiariq	2 632,9	3 342,1	126,9
Yangibozor	2 104,3	2 418,5	114,9

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya’ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Tuproqqal’a tumanida 4 508,4 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 131,6 %), Urganch shahrida 4 506,2 ming so‘mni (131,5 %) tashkil etgan bo‘lsa, Yangibozor tumanida 2 418,5 ming so‘mni (70,6 %), Gurlan tumanida 2 582,6 ming so‘mni (75,4 %), Hazorasp tumanida 2 650,5 ming so‘mni (77,3 %) tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

Tumanlar kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2023- yil yanvar-martda qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)



Tumanlar kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(yanvar-mart oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)



Sohalar kesimida yuridik shaxslarda o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2023- yil yanvar-mart oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)

Sohalar nomi	*O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m (yanvar- mart)*		*O‘sish sur’ati, %*
	2022- yil	*2023- yil*	
Xorazm viloyati - jami:	**2 846,1**	**3 427,0**	**120,4**
shu jumladan:			
Sanoat	3 180,6	3 945,8	124,1
Qurilish	3 132,6	3 306,8	105,6
Savdo	2 396,6	2 806,7	117,1
Tashish va saqlash	6 555,9	6 415,0	97,9
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	2 190,9	2 167,2	98,9
Axborot va aloqa	3 828,6	6 253,8	163,3
Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	7 745,7	8 967,1	115,8
Ta’lim	2 376,3	2 764,9	116,4
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	2 483,8	2 992,6	120,5
San’at, ko‘ngil ochish va dam olish	2 102,6	2 468,1	117,4
Boshqa faoliyat turlari	3 156,3	3 932,0	124,6

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko‘rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2023- yil yanvar-mart oylarida Xorazm viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 427,0 ming so‘mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 20,4 % ga o‘sishi kuzatildi. 2023- yil yanvar- mart oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o‘sish sur’ati axborot va aloqada tashish va saqlash faoliyatida 63,3 %, sanoatda – 24,1 %, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda – 20,5 %, san’at, ko‘ngil ochish va dam olishda – 17,4 %, savdoda – 17,1 %, ta’limda – 16,4 % va moliyaviy va sug‘urta faoliyatida – 15,8 % darajada kuzatildi.

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori va o‘sish sur’ati

(2023- yil yanvar-martda qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘mda)



Sanoat sohasida o‘rtacha oylik ish haqining yanvar-mart oylarida yillar kesimidagi dinamikasi



2023- yil yanvar-mart oylarida sanoat sohasi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3945,8 ming so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, huddi shu davr 2019 -yilda 2270,4 ming so‘mni, 2020 -yilda 2825,8 ming so‘mni, 2021 -yilda 2717,9 ming so‘mni, 2022- yilda 3180,6 ming so‘mni tashkil qilgan va otgan yillarga nisbatan 173,8 % darajada kopaygani kuzatildi.

Sanoatning asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi, *ming so‘m*

3876,1

Ishlab chiqarish sanoati

2062,5

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

5228,0

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Sanoatning asosiy tarmoqlari bo‘yicha 2023- yil yanvar-mart oylarida o‘rtacha oylik ish haqi, ishlab chiqarish sanoatida -3876,1 ming so‘mni, suv bilan ta’minlash,kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda -2062,5 ming so‘mni, elektr, gaz,bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashda -5228,0 ming so‘mni tashkil qilgani ko‘rsatilgan.

Sohalar kesimida yuridik korxonalarda ishlovchi xodimlar soni

(2023- yil yanvar-mart, viloyatdagi ishlovchi xodimlarga nisbatan, % da)



Qurilish sohasida o‘rtacha oylik ish haqi



Qurilish sohasida o‘rtacha oylik ish haqining yanvar-mart oylarida yillar kesimidagi dinamikasi



Sohalar kesimida yuridik shaxslar soni va ishlovchi xodimlar soni, nominal hisoblangan ish haqi, o‘rtacha oylik ish haqi.

(2023- yil yanvar-mart oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

	Xodimlar soni, kishi	***Ish haqi fondi, mln so‘m***	***Ortacha oylik ish haqi, ming so‘m***
	2023- y.	***2023- y.***	***2023- y.***
Xorazm viloyati – jami:	**136 767**	**1 406 117,2**	**3 427,0**
shu jumladan:			
Sanoat	18 293	216 539,7	3 945,8
Qurilish	1 002	9 940,1	3 306,8
Savdo	1 081	9 102,1	2 806,7
Tashish va saqlash	3 929	75 613,5	6 415,0
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	51	331,6	2 167,2
Axborot va aloqa	830	15 571,9	6 253,8
Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	2 702	72 687,4	8 967,1
Ta’lim	63 596	527 513,0	2 764,9
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	24 752	222 220,6	2 992,6
San’at, ko‘ngil ochish va dam olish	1 963	14 534,6	2 468,1
Boshqa faoliyat turlari	18 568	219 030,3	3 932,0

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, **Sanoatda** -18 293 nafar xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 216 539,7 mln so‘mni, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 945,8 ming so‘mni, **Qurilishda** - 1002 nafar xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 9 940,1 mln so‘mni, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 306,8 ming so‘mni, **Savdoda** -1081 nafar xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 9 102,1 mln so‘mni, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 806,7 ming so‘mni, **Tashish va saqlashda** - 3929 nafar xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 75 613,5 mln so‘mni, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 6415,0 ming so‘mni, **Axborot va aloqada** -830 nafar xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 15 571,9 mln so‘mni, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 6253,8 ming so‘mni, **Moliyaviy va sug‘urta faoliyatida** -2702 nafar xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 72 687,4 mln so‘mni, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 8967,1 ming so‘mni,**Ta’limda** -63 596 nafar xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 527 513,0 mln. so‘mni, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 764,9 ming so‘mni, **Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda** - 24 752 nafar xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 222 220,6 mln so‘mni,

o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 992,6 ming so‘mn tashkil etgan.

Tashish va saqlash sohasida 2023-yilning yanvar-martida o‘rtacha oylik ish haqi

Ta’lim faoliyati bo‘yicha shahar va tumanlar kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (viloyat ko‘rsatkichiga nisbatan)

(2023-yil yanvar-martda qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)

Shahar va tumanlar nomi	*O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m*	*Viloyatga nisbatan foizda*
Xorazm viloyati	**2764,9**	**100**
shaharlar:		
Urganch. sh	3908,4	141,4
Xiva. sh	2574,6	93,1
tumanlar:		
Bog‘ot	2698,1	97,6
Gurlan	2406,3	87,0
Qo‘shko‘pir	2384,8	86,3
Urganch	2594,2	93,8
Hazorasp	2413,1	87,3
Tuproqqal’a	2311,2	83,6
Xonqa	2722,0	98,4
Xiva	2504,1	90,6
Shovot	2523,6	91,3
Yangiariq	3049,1	110,3
Yangibozor	2235,1	80,8

Ta’lim sohasida jami 63 596 nafar (jami viloyatdagi ishlovchilarga nisbatan ulushi 46,5 % ni) xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 764,9 ming

so‘mni tashkil etgan va 2022- yilning mos davriga nisbatan 16,3 % ga o‘sdi.

Ta’lim faoliyati bo‘yicha shahar va tumanlar kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (viloyat ko‘rsatkichiga nisbatan)

(2023-yil yanvar-martda qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)



Ta’limda shahar va tumanlar kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdori Urganch shahrida 3 908,4 ming so‘mni (viloyatdagi ta’limning o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 141,4 %), Yangiariq tumanida 3 049,1 ming so‘mni (110,3 %) tashkil etgan bo‘lsa, Yangibozor tumanida 2 235,1 ming so‘mni (80,8 %), Tuproqqal‘a tumanida 2 311,2 ming so‘mni (83,6 %), Qo‘shko‘pir tumanida 2 384,8 ming so‘mni (86,3 %) tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

STATISTIK KO‘RSATKICHLARGA IZOHLAR

Nominal hisoblangan ish haqi – ma’lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko‘rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to‘lovlarni o‘z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to‘lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

O‘rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni – homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha ta’tilda bo‘lgan, bevosita tug‘uruqxonaning o‘zidan yangi tug‘ilgan chaqaloqni farzandlikka olish munosabati bilan ta’tilda bo‘lgan, hamda bolani uning qonun hujjatlariga muvofiq ma’lum bir yoshga to‘lguniga qadar parvarish qilish bo‘yicha ta’tilda bo‘lgan ayollar; ta’lim muassasalarida o‘qiyotgan va ish haqi saqlanmagan holda qo‘shimcha mehnat ta’tilida bo‘lganlar, shuningdek, ta’lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirish uchun ish haqi saqlanmagan holda ta’tilda bo‘lgan xodimlarlarni inobatga olmagan holda, mehnat daftarchalari mavjud bo‘lgan va ish haqi hisoblangan xodimlarning o‘rtacha sonini ifodalaydi.

Ish vaqti- korxona yoki muassasada muayyan ishni bajarish uchun qonuniy berilgan muddat ish kuni va ish haftasi bilan belgilanadi. Ish vaqti davomida ishlanmagan vaqt (nima sababdan sodir bo‘lgani dan qat’iy nazar) bekor turish vaqti deyiladi.

Ish haqi- joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi to‘lovlar bo‘lib, ular hisoblangan summalar yig‘indisidan tashkil topadi va ikki qismga bo‘linadi: ish haqi va ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar.

Ish haqiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar- Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi hajmiga bir qator bozor omillari va bozordan tashqari omillar ta’sir ko‘rsatadi, buning natijasida mehnatga haq to‘lashning muayyan darajasi vujudga keladi. Bular tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif o‘zgarishlari, mehnatga bo‘lgan talab, narxining o‘zgaruvchanligi, iste’mol tovarlari va xizmatlar narxi o‘zgarishi va boshqalar kiradi.